

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



FORS, DARIY VA TOJIK TILLARIDAGI IQTISODIY TERMINLAR FONETIK TIZIMINING QIYOSIY TAHLILI

*Fazliddin Mahmadrabobov**O'qituvchi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: klassik fors tili, iqtisodiy terminlar, unlilar, cho'ziq unli, qisqa unli, fonetik tahlil, fonemalar tizimi, qiyosiy tahlil, transkripsiya.

Annotatsiya: Bugungi kundagi jadal rivojlanish barcha sohalar kabi iqtisod yo'nalishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Chunonchi, davlat va jamiyat hayotidagi iqtisodiy o'sish sur'atlari, davlatlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlar, tovarlar almashinuvi, bank-kredit masalalarining davlatlararo munosabatlarining rivoji ushbu soha terminlari tarkibining ham kundan-kunga yangilanib borishiga sabab bo'lmoqda. Shu maqsadda, iqtisodiyot terminlarini tadqiq qilish, bu sohaning xos tushuncha va atamalarining ishlatilish va qo'llanilish holatlarini o'rganish – bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu kabi yondashuv, avvalo, iqtisodiyot sohasi terminlari taraqqiyotini o'rganishni maqsad qilsa, boshqa tomondan, xalqaro nomlanishdagi ba'zi iqtisodiy terminlarning ma'lum til doirasida ishlatilish chastotasini aniqlashga asos bo'ladi.

Fors, dariy va tojik tillari asli bir til oilasiga mansubligi, aniqrog'i, bir o'zakka egaligi, ularning qadimgi davr qatlami bir xil ekanligi, qolaversa, bu tillar leksik qatlamida o'zlashmalarning mavjud bo'lishiga qaramasdan, XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, bu tillardagi iqtisodiy terminlar turli ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va tijoriy aloqalar natijasida bir-biridan farq qila boshlagan. Bu holat kelib chiqishi bir bo'lgan mazkur uch tildagi iqtisodiy terminlarning struktur va leksik-semantik jihatdan tadqiq qilish, ularning fonetik farqini aniqlash, ma'lum tushuncha uchun har uchala tilda qo'llaniluvchi terminning ishlatilish chastotasini o'rganib chiqishni taqozo qiladi.

Hozirgi davrda fors, dariy va tojik adabiy tillari o'zaro tamoman farqlanadi. Tafovutlar tilning barcha sathlarini – fonetika, morfologiya, sintaksis, leksika va semantikani qamrab olgan.

Fors, dariy va tojik tillari til qurilishi va genetik jihatdan

qarindosh hisoblansa-da, bugungi kunda ularning har biri mustaqil adabiy til sanaladi. Bu ularning ijtimoiy hayotdagi o'rnini bilan belgilanadi.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE PHONETIC SYSTEM OF ECONOMIC TERMS IN PERSIAN, DARI, AND TAJIK LANGUAGES

Fazliddin Makhmadrajabov

Teacher

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: classical Persian language, economic terms, vowels, long vowel, short vowel, phonetic analysis, phoneme system, comparative analysis, transcription.

Abstract: Today's rapid development, like all spheres, did not fail to affect the direction of the economy. For example, the rate of economic growth in the life of the state and society, the mutual economic relations between the states, the exchange of goods, the development of the interstate relations of banking and credit issues are causing the content of terms in this field to be updated day by day. For this purpose, the research of economic terms, the study of the use and application of specific concepts and terms of this field are among the current issues. Such an approach, first of all, aims to study the development of terms in the field of economics, on the other hand, it is the basis for determining the frequency of use of certain economic terms in a certain language.

The fact that Persian, Dari and Tajik languages originally belong to the same language family, or rather, have the same root, that their ancient layer is the same, besides, despite the existence of borrowings in the lexical layer of these languages, at the end of the 19th and 20th centuries. By the beginning of the century, economic terms in these languages began to differ from each other as a result of various socio-political processes and commercial relations. This situation requires structural and lexical-semantic research of the economic terms of these three languages, which have the same origin, to determine their phonetic difference, to study the frequency of use of the term used in all three languages for a certain concept.

At present, Persian, Dari and Tajik literary languages are completely different from each other. Differences cover all levels of language - phonetics, morphology, syntax, lexis and semantics.

Although Persian, Dari and Tajik languages are linguistically and genetically related, today each of them is considered an independent literary language. This is determined by their place in social life.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФОНЕТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В ПЕРСИДСКОМ, ДАРИДСКОМ И ТАДЖИКСКОМ ЯЗЫКАХ

Фазлиддин Махмадражабов

Преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

классический персидский язык, экономические термины, гласные, долгая гласная, краткая гласная, фонетический анализ, фонемная система, сравнительный анализ, транскрипция.

Аннотация:

Сегодняшнее бурное развитие, как и все сферы, не могло не отразиться на направлении развития экономики. Например, темпы экономического роста в жизни государства и общества, взаимные экономические отношения между государствами, обмен товарами, развитие межгосударственных связей банковского и кредитного характера являются причинами ежедневного обновления термины этой области. В связи с этим к числу актуальных вопросов относятся исследование экономических терминов, изучение использования и применения конкретных понятий и терминов этой области. Такой подход, прежде всего, направлен на изучение развития терминов в области экономики, с другой стороны, он является основой для определения частоты употребления тех или иных экономических терминов в определенном языке.

Тот факт, что персидский, дари и таджикский языки изначально принадлежат к одной языковой семье, точнее, имеют один и тот же корень, что их древний слой одинаков, к тому же, несмотря на наличие заимствований в лексическом слое этих языков, в конце XIX и XX вв. К началу века экономические термины в этих языках стали отличаться друг от друга в результате различных общественно-политических процессов и торговых отношений. Данная ситуация требует структурного и лексико-семантического исследования экономических терминов этих трех языков, имеющих одинаковое происхождение, для определения их фонетического различия, изучения частотности употребления термина, употребляемого во всех трех языках для данного концепция.

В настоящее время персидский, дари и таджикский литературные языки совершенно отличаются друг от друга. Различия охватывают все уровни языка – фонетику, морфологию, синтаксис, лексику и семантику.

Хотя персидский, дари и таджикский языки лингвистически и генетически родственны, сегодня каждый из них считается самостоятельным литературным языком. Это определяется их местом в общественной жизни.

KIRISH

Klassik fors tilining vorislari hisoblanadigan hozirgi zamon fors, dariy va tojik tillari hind-yevropa tillari oilasining janubi-g'arbiy guruh eroniy tillariga kiradi. Mazkur tillarning kelib

chiqishi va tarixiy taraqqiyotining muhim bosqichlari bir-biriga batamom mos keladi, ularning asosiy yozma manbalari esa umumiydir.

Lekin hozirgi davrda fors, dariy va tojik adabiy tillari o'zaro farqlanadi. Tafvutlar tilning barcha sathlarini – fonetika, morfologiya, sintaksis, leksika va semantikani qamrab oladi.

Klassik fors tili hamda hozirgi davr fors, dariy va tojik tillari fonemalar tizimi sharqshunoslar A. Quronbekov¹ hamda X.Z. Alimova² tomonidan qiyosiy tadqiq etilgan bo'lib, o'rta davr fors tilidan yangi davrga va yangi fors tili davridan hozirgi zamonga o'tish jarayonida hozirgi fors, dariy va tojik tillarining fonetik tizimi hamda grammatik qurilishida ba'zi ichki va tashqi o'zgarishlar sodir bo'lganligi qayd etilgan. Bu borada Afg'onistonda davlat tili darajasidagi dariy tili o'zining arxaik an'analari bilan ajralib turadi. O'tmishdagi tillarga xos bir qator xususiyatlar dariy tilida saqlanib qolgan.

Fors, dariy va tojik tillari til qurilishi va genetik jihatdan qardosh hisoblansa-da, bugungi kunda ularning har biri mustaqil adabiy til sanaladi. Bu ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni bilan belgilanadi.

Quyida klassik til va hozirgi zamon fors, dariy, tojik tillaridagi unilarning o'zaro nisbatini keltiramiz.

Klassik fors tilining fonetik tizimi hozirgi zamon fors tilining fonetik tizimidan farqli bo'lgan. Klassik fors tilida 8 ta unli va 24 ta undosh fonema mavjud bo'lgan³. Unli fonemalar klassik fors tilida cho'ziq va qisqaligiga ko'ra taqsimlanadi. Qisqa unli: a, i, u; Cho'ziq unli: ā, ī, ū, ē, ō.

Hozirgi zamon fors tilida klassik fors tilidagi unilarning aksariyati (qisqa unilarning barchasi va 2 ta cho'ziq unli) sifat o'zgarishlariga uchragan:

Классик форс тилида	i	ī ē	a	ā	u	ū ō
		∨				∨
Ҳозирги форс тилида	e	i	a	ā	o	u

Klassik fors tilidagi 8 unlining hozirgi zamon tojik tilida 6 taga qisqarishi, sxemada ko'rsatilganidek, faqat cho'ziqligiga ko'ra farqlanuvchi sifat jihatidan bir xil unilarning qo'shiluvi natijasida yuz bergan:

Классик форс тилида	i ī	ē	a	ā	u ū	ō
	∨				∨	
Тоҷик тилида	i	ê	a	ô	u	û

Hozirgi kunda dariy tilida 8 ta unli fonema mavjud⁴. Klassik fors tilidagi unilar ushbu tilda son jihatdan o'zgarishga uchramagan bo'lib, faqat sifat jihatdan biroz farqlanadi:

¹ Қуронбеков А. Классик форс тили ҳамда ҳозирги давр форс, дарий ва тоҷик тиллари фонемалар тизимининг қиёсий таҳлили//Шарқклассикфилологияси. – Т.: ТошДШИ, 2009. – Б. 11-20.

² Алимova X. З. Форс, дарий ва тоҷик тилларининг шаклланиш босқичлари: умумийлик ва фарқлар (фонетик таҳлил)//Шарқшунослик. – Т.: ТошДШИ, 2008. – № 1-2. – Б. 20-27.

³ Abulʼyāsemiy M. Dastur-e tārixi-ye zābān-e fārsi. – Т., 1385. – S. 19.

⁴ Neghat Saidi M. N. Dastur zabān-e mo'āser-e dari. – K., 1969. – S. 10.

Классик форс тилида	i	ī	ē	a	ā	u	ū	ō
Дарий тилида	e	i	ê	a	â	ô	u	o

Fonetik tahlilda fors va dariy tillari uchun belgilangan xalqaro transkripsiyadan⁵, tojik tili uchun quyidagi transkripsiyadan foydalanildi⁶:

a – a	и, й – i	c – s	я – ya
б – b	й – y	t – t	ғ – γ
в – v	к – k	y – u	қ – q
г – g	л – l	ф – f	ӯ – ū
д – d	м – m	х – x	ҳ – h
e – ê, yê	н – n	ч – č	ҷ – j
ë – yô	o – ô	ш – š	
ж – ž	п – p	э – ê	
з – z	р – r	ю – yu	

Tojik tilida cho‘ziq *ī* harfi (и-и заданок) faqat so‘z oxiridagi urg‘uli *i* ni ifodalash uchun yoziladi.

Fors va dariy tillarida izofa urg‘usiz ye tovushi orqali ifodalanadi. Qisqa unlilar bilan tugagan so‘zlardan so‘ng izofa *ye* deb talaffuz qilinadi. Cho‘ziq unlilar bilan tugagan so‘zlardan so‘ng izofa *ی* *yā* harfi orqali yoziladi va *ye* tarzida talaffuz qilinadi. Lekin, tojik tilida barcha holatlarda izofa *i* orqali talaffuz qilinadi va yoziladi: *bôzôr-i arz* (adabiy orfografiya: бозори арз) “valyuta bozori”; *birža-i kôyazhō-i qimatnôk* “qimmatli qog‘ozlar birjasi”; *fôida-i iqtisôdi* “iqtisodiy foyda”.

Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, dariy tili lug‘atlarida berilgan transkripsiyalarda so‘zlarning o‘qilishi bir-biridan farqlanib qoluvchi holatlar ham mavjud. Masalan, ارزش “qiymat” terminining transkripsiyasi L. N. Kiseleva va V. I. Mikolaychiklar tomonidan tuzilgan “Дари-русский словарь”da *arzes* tarzida berilgan bo‘lsa, K.A. Lebedev, L.S. Yatsevich va M.A. Konarovskiyalar tomonidan tuzilgan “Русско-пушту-дари словарь”⁷da *arziš* tarzida berilgan. Shuningdek, اقتصاد “iqtisod” termini *eqtesâd* va *iqtisâd* tarzida, حساب “hisob” termini *hesâb* va *hisâb* tarzida, واردات “import” termini *wâredât* va *wâridât* tarzida va sh. o‘. Tadqiqotimiz uchun L. N. Kiseleva va V. I. Mikolaychiklar tomonidan tuzilgan “Дари-русский словарь”ida foydalanilgan transkripsiya tanlandi.

Unlilar qiyosi

Hozirgi zamon fors tilida 6 ta unli fonema – monoftong va 2 ta diftong (keyinchalik ay, av dan qayta hosil bo‘lgan ei, ou) bor⁸. Fors tilida unlilar cho‘ziq-qisqaligiga ko‘ra farqlanadi. Qisqa unlilar: a, e, o; Cho‘ziq unlilar: ā, i, u.

⁵ *Bu haqida qarang:* Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М., 2001; Киселева Л.Н., Миколайчик В.И. Дари-русский словарь. – М.: Рус.яз., 1986.

⁶ *Bu haqida qarang:* Основы иранского языкознания. Новоиранские языки: западная группа, прикаспийские языки. – М.:Наука, 1982. – С. 97-98.

⁷ Лебедев К.А., Яцевич Л.С., Конаровский М.А. Русско-пушту-дари словарь. – М.: Рус.яз., 1983.

⁸ Куронбеков А. Форс тилидаги фонетик ўзгаришлар сабаби//Шарқшунослик. – Т.: ТошДШИ, 2011. – № 1. – Б. 3-9.

Dariy tili vokalizmlar sistemasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Biroq barcha afg'onshunos olimlar dariy tilida 8 ta unli fonema borligini qayd etadilar⁹: qisqa unililar: a, o, e; cho'ziq unililar: â, ô, û, ê, î.

Dariy tili fonetik tizimida fors tili fonetik tizimidan farqli ravishda beshta cho'ziq unli (fors tilidagi cho'ziq unililar + cho'ziq ê va ô unililari) mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Cho'ziq ê va ô unililari cho'ziq i va u ifodalangan harflar bilan yoziladi. Dariy tili grammatikasiga muvofiq, ê – یای مجهول *yā-ye majhul* “noma'lum yoy” va ô – واو مجهول *vāv-e majhul* “noma'lum vov” deb ataladi. i esa یای معروف *yāy-e ma'ruf* “ma'lum yoy” va u واو معروف *vāv-e ma'ruf* “ma'lum vov” deyiladi.

Dariy tilida unililar sistemasi qadimiy va o'rta fors tili vokalizmlarining taraqqiyotidagi o'tish davri jihatlarini o'zida aks ettiradi:

- 1) unililar miqdori klassik fors-tojik tilidagi unililarga teng: 8 ta unli fonema mavjud;
- 2) o'rta fors va klassik fors-tojik tillaridagi majhul ô va ê cho'ziq unililari dariy tilida saqlanib qolgan;
- 3) unililar o'rta fors va klassik fors-tojik tillariga xos cho'ziq-qisqalik jihatidan farqlanadi. Albatta, bu o'rinda klassik tilda cho'ziqligiga ko'ra farqlanuvchi uch juft unlining muhim sifat o'zgarishlarini qayd etmoq zarur. Qolaversa, hozirgi zamon dariy tilida har bir unli tovush o'ziga xos xususiyatga ega va cho'ziq-qisqalik belgisi ma'lum darajada fonologik ahamiyatini yo'qotgan¹⁰.

Tojik tili yozuv tizimi kirill alifbosiga asoslangan bo'lib, 35 ta harf va 30 ta tovushdan iborat. Tojik tili alifbosida unililar 6 tani tashkil qiladi: a, i, u, ô, e, û.

Unililar fors va dariy tillarida cho'ziq-qisqaligiga ko'ra farqlansa, hozirgi zamon tojik tilida miqdor jihatdan turg'un-noturg'unligiga ko'ra taqsimlanadi. Tojik tilida turg'un unililar – ô, e, û va noturg'un unililar –a, i, u¹¹.

Fors tilida so'z oxiridagi qisqa e unlisi هـ *hā-ye havvaz* orqali ifodalanadi va bu harf هـ غير ملفوظ *hā-ye yeyr-e malfuz* deyiladi. Dariy tilida so'z oxiridagi هـ غير ملفوظ *hā-ye yeyr-e malfuz* qisqa a orqali talaffuz qilinadi; tojik tilida ham a orqali talaffuz qilinadi va yoziladi.

Qiyoslanayotgan tillarda iqtisodiy terminlarning o'zlashishi turli tillardan ekanligi, tilning ichki imkoniyatlari asosida yasalgan terminlar tafovuti va o'z navbatida yuqorida keltirilgan unililar tizimi o'rtasidagi farqlar mavjud iqtisodiy terminologik leksikada aks etadi.

Materiallarimiz tahlili fors, dariy va tojik tillari iqtisodiy terminlarida unililarning quyidagicha o'zgarishini ko'rsatadi:

So'z boshida fors va dariy tillaridagi qisqa ye unlisi tojik tilida i unlisi orqali talaffuz qilinadi va yoziladi:

fors tilida	dariy tilida	tojik tilida	tarjimasi
اجاره <i>ejāre</i>	اجاره <i>ejāra</i>	<i>ijōra</i>	“ijara”
اسكناس <i>eskenās</i>	اسكناس <i>eskenās</i>	<i>iskinōs</i>	“assignatsiya”
اقتصاد	اقتصاد		“iqtisod”

⁹ Алимова Х.З. Форс, дарий ва тожик тилларининг шаклланиш босқичлари: умумийлик ва фарқлар (фонетик таҳлил) // Шарқшунослик. – Т.: ТошДШИ, 2008. – № 1-2. – Б. 20-27.

¹⁰ Основы иранского языкознания. Новоиранские языки: западная группа, прикаспийские языки. – М.: Наука, 1982. – С. 26-27.

¹¹ Хаскашев Т. Н. Фонетикаи забони адабии тоҷикӣ. – Д.: Маориф, 1989. – С. 66-67.

<i>eytesād</i>	<i>eqtesād</i>	<i>iqtisōd</i>	
----------------	----------------	----------------	--

So‘z o‘rtasida fors tilidagi qisqa *e* unlisi dariy tilida qisqa *e* (ba‘zida qisqa *o*) va tojik tilida *i* unlisi orqali talaffuz qilinadi va yoziladi:

fors tilida	dariy tilida	tojik tilida	tarjimasi
ارزش <i>arzeš</i>	ارزش <i>arzeš</i>	<i>arziš</i>	“qiymat”
تجارت <i>tejārat</i>	تجارت <i>tejārat</i> (ba‘zan <i>tojārat</i>)	<i>tijōrat</i>	“tijorat”
واردات <i>vāredāt</i>	واردات <i>wāredāt</i>	<i>vōridōt</i>	“import”
صادرات <i>sāderāt</i>	صادرات <i>sāderāt</i>	<i>sōdirōt</i>	“eksport”

Fors tilida birinchi ochiq bo‘g‘indagi qisqa *e* unlisi dariy tilida qisqa *e* (ba‘zan qisqa *o*) va tojik tilida *u* unlisi bilan talaffuz qilinadi va yoziladi:

fors tilida	dariy tilida	tojik tilida	tarjimasi
سپرده <i>seporde</i>	سپرده <i>seporda</i> (ba‘zan <i>soporda</i>)	<i>supurda</i>	“depozit”

So‘z o‘rtasida fors va dariy tillaridagi qisqa *o* unlisi tojik tilida *u* unlisi orqali talaffuz qilinadi va yoziladi:

fors tilida	dariy tilida	tojik tilida	tarjimasi
امانت گزار <i>amānatgozār</i>	امانت گزار <i>amānatgozār</i>	<i>amōnatguzōr</i>	“depozitor”
واردکننده <i>vāredkonande</i>	واردکننده <i>wāredkonanda</i>	<i>vōridkunanda</i>	“importyor”
صادرکننده <i>sāderkonande</i>	صادرکننده <i>sāderkonanda</i>	<i>sōdirkunanda</i>	“eksportyor”
گمرک <i>gomrok</i>	گمرک <i>gomrok</i>	<i>gumruk</i>	“bojxona”
دستمزد <i>dastmozd</i>	دستمزد <i>dastmozd</i>	<i>dastmuzd</i>	“ish haqqi”

Fors tilida so‘z oxiridagi qisqa *e* unlisi dariy tilida, qoidaga muvofiq, *a* tarzida talaffuz qilinadi; tojik tilida ham *a* unlisi orqali talaffuz qilinadi va *a*, cho‘ziq unililardan so‘ng *ya* yoziladi:

fors tili	dariy tili	tojik tili	tarjimasi
بیمه <i>bime</i>	بیمه <i>bima</i>	<i>bima</i> <i>bima</i>	“sug‘urta”
حواله <i>havāle</i>	حواله <i>hawāla</i>	<i>havola</i> <i>havōla</i>	“o‘tkazma”
سرمایه <i>sarmāye</i>	سرمایه <i>sarmāya</i>	<i>sarmoya</i> <i>sarmōya</i>	“investisiya”
عرضه <i>arze</i>	عرضه <i>arza</i>	<i>arza</i> <i>arza</i>	“taklif”
مبادله	مبادله	<i>mubodila</i>	“ayirboshlash”

<i>mobādele</i>	<i>mobādele</i>	<i>mubōdila</i>	
-----------------	-----------------	-----------------	--

Soʻz oʻrtasida fors tilidagi choʻziq *i* unlisi dariy tilida choʻziq *ê* unlisi (پای مجهول) orqali talaffuz qilinadi; tojik tilida esa *ê* unlisi orqali talaffuz qilinadi va yoziladi:

fors tilida	dariy tilida	tojik tilida	tarjimasi
پیشپرداخت <i>pišpardāxt</i>	پیشپرداخت <i>pēšpardāxt</i>	<i>pēšpardōxt</i>	“avans”
پیشها <i>pišbahā</i>	پیشها <i>pēšbahā</i>	<i>pēšbahō</i>	“avans”
پیشکی <i>pišaki</i>	پیشکی <i>pēšaki</i>	<i>pēšaki</i>	“avans”

Fors tilida choʻziq *ā*, *u*, soʻz boshi va oʻrtasidagi qisqa *a* unlilari dariy va tojik tillarida hech qanday oʻzgarishsiz talaffuz qilinadi va yoziladi:

fors tilida	dariy tilida	tojik tilida	tarjimasi
بحران <i>bohrān</i>	بحران <i>bohrān</i>	бӯҳрон <i>būhrōn</i>	“krizis”
تقاضا <i>taqāzā</i>	تقاضا <i>taqāzā</i>	тақозо <i>taqōzō</i>	“talab”
قرارداد <i>qarārdād</i>	قرارداد <i>qarārdād</i>	қарордод <i>qarōrdōd</i>	“shartnoma”
قاچاق <i>qācāq</i>	قاچاق <i>qācāq</i>	қочоқ <i>qōcōq</i>	“kontrabanda”
برات <i>barāt</i>	برات <i>barāt</i>	барот <i>barōt</i>	“veksel”

Shunday boʻlsa-da, baʼzi holatlarda fors tilidagi choʻziq *u* unlisi dariy tilida choʻziq *ô* unlisi (واو مجهول) orqali talaffuz qilinadi; tojik tilida esa *û* unlisi orqali talaffuz qilinadi va yoziladi:

fors tilida	dariy tilida	tojik tilida	tarjimasi
فروش <i>foruš</i>	فروش <i>forōš</i>	<i>furūš</i>	“sotuv”

Lugʻatda خوار *xār* II. 2. qoʻshma soʻzning ikkinchi tarkibiy qismi sifatida, “eyuvchi, ichuvchi” maʼnolari qayd qilingan: خوار شراب *šarābxār* “sharobxoʻr, sharob ichuvchi”¹². Lugʻatda, shuningdek, خوردن *xordan* “yemoq, ichmoq” feʼlining HZN خور *xor* II.2. ham aynan shu maʼnoda keltirilgan: خور شراب *šarābxār* “sharobxoʻr, sharob ichuvchi”¹³. Bu holat klassik fors tili elementi sifatida qaraladi¹⁴.

Fors va dariy tillarida mazkur yasovchi orqali yasalmalarda ikkala variant ham qayd qilindi:

fors tilida	dariy tilida	tojik tilida	tarjimasi
رشوه خوار <i>rešvexār</i>	رشوه خور <i>rešwaxōr</i>	<i>rišvaxūr</i>	<i>poraxoʻr</i>
رشوت خوار	رشوت خور		<i>poraxoʻr</i>

¹² Рубинчик Ю. А. Персидско-русский словарь. – М.: Рус.яз., 1985. – Том I, – С. 573.

¹³ Рубинчик Ю. А. Персидско-русский словарь. – М.: Рус.яз., 1985. – Том I, – С. 579.

¹⁴ Основы иранского языкознания. Новоиранские языки: западная группа, прикаспийские языки. – М.: Наука, 1982. – С. 78.

<i>rešvatxār</i>	<i>rešwatxôr</i>	<i>rišvatxûr</i>	
رباخوار <i>rebāxār</i>	رباخوار <i>rebāx(w)âr</i>	<i>sudxûr</i>	<i>sudxo 'r</i>
رشوه خواری <i>rešvexāri</i>	رشوه خوری <i>rešwaxôri</i>	<i>rišvaxûri</i>	<i>raxo 'rlik, korrupsiya</i>
رشوت خواری <i>rešvatxāri</i>	رشوت خوری <i>rešwatxôri</i>	<i>rišvatxûri</i>	<i>raxo 'rlik, korrupsiya</i>
رباخواری <i>rebāxāri</i>	رباخواری <i>rebāx(w)âri</i>	<i>sudxûri</i>	<i>sudxo 'rlik</i>

Tilning boshqa bo'limlari singari, fonetik tarkib ham doimiy o'zgarishda bo'ladi. Olib borilgan tadqiqot tahlili quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Qiyoslanayotgan tillarning fonetik tahlili fonetika sohasidagi asosiy farq, asosan, vokalizmlar sistemasiga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Bunda, albatta, ekstralingvistik ta'sirning o'rnini qayd etmoq zarur.

2. Hozirgi zamon fors tilida qisqa e, o unilari faqat tojik tilida o'zgarishga uchragan bo'lib, qisqa a unlisi dariy va tojik tillarida hech qanday o'zgarishsiz talaffuz qilinadi va yoziladi:

- qisqa e unlisi dariy tilida qisqa e, o va tojik tilida i, u unilari orqali, so'z oxiridagi qisqa e unlisi har ikkala tilda a unlisi orqali ifodalanadi.

- qisqa o unlisi dariy tilida qisqa o va tojik tilida u unlisi orqali ifodalanadi.

3. Fors tilidagi cho'ziq i unlisi dariy tilida cho'ziq ê va tojik tilida ê unlisi bilan ifodalanadi. Cho'ziq ā unlisi hech qanday o'zgarishsiz talaffuz qilinadi va yoziladi. Cho'ziq u unlisi kamdan-kam holatlarda dariy tilida cho'ziq ô, tojik tilida û unlisi orqali, qolgan holatlarda o'zgarishsiz ifodalanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abulkasemiy M. (2006). Historical grammar of the Persian language. Tehran. Dastur-e tārixi-ye zābān-e fārsi. (in Persian).
2. Alimova X. Z. (2008). Stages of formation of Persian, Dari and Tajik languages: commonalities and differences (phonetic analysis). Oriental studies. 1-2, 20-27. Fors, dariy va tojik tillarining shakllanish bosqichlari: umumiylik va farqlar (fonetik tahlil) (in Uzbek)
3. Habibov S.H., Faqerov H.N., Jamshedov M.J. (2010). Dictionary of economic terms (Russian-Tajik). Dushanbe: Maorif. Lugati istilohoti iqtisodi (rusi-tojiki) (In Tajik).
4. Киселева Л.Н., Миколайчик В.И. (1986). Дари-Руссиан дистионарий. Моссow: Руссиан лангуаге. Дари-русский словарь. (ин Руссиан).
5. Kor Ogli X.G. (1957). Persian-Russian and Russian-Persian general economic and foreign trade dictionary. Moscow. Persidsko-russkiy i russko-persidskiy obsheekonomicheskiy i vneshnetorgoviy slovar. (in Russian).
6. Kuronbekov A. (2009). Comparative analysis of the phoneme system of classical Persian and contemporary Persian, Dari and Tajik languages. Eastern classical philology. 1, 11-20. Klassik fors tili hamda hozirgi davr fors, dariy va tojik tillari fonemalar tizimining qiyosiy tahlili (in Uzbek).
7. Kuronbekov A. (2011). The reason for phonetic changes in the Persian language. Oriental studies. 1, 3-9. Fors tilidagi fonetik o'zgarishlar sababi (in Uzbek).

8. Lebedev K.A., Yatsevich L.S., Konarovskiy M.A. (1983). Russian-Pashto-Dari dictionary. Moscow: Russian language. Russko-pushtu-dari slovar (in Russian).
 9. Neghat Saidi M. N. (1969) Contemporary Dari Grammar. Kabul. Dastur zabân-e mo'âser-e dari.(in Dari).
 10. Rubinchik Yu. A. (1985). Persian-Russian dictionary. Moscow: Russian language. Persidsko-russkiy slovar (in Russian)
 11. Rubinchik Yu. A. (2001). Grammar of modern Persian literary language. Moscow: Russian language. Grammatika sovremennogo persidskogo literaturnogo yazika (in Russian).
 12. Xaskashev T. N. (1989). Phonetics of Tajik literary language. Dushanbe: Maorif. Fonetikai zaboni adabii tojiki (in Tajik).
- Yowsiy M.A. (2010). Economic Dictionary (English-Dari). Kabul. Qâmus-e eqtesâd (englêsi-dari) (in Dari).